

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

“TASDIQLAYMAN”

O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi



“ ” _____ 2026-yil

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat
stipendiyalariga nomzodlarni saralash bo‘yicha

O‘ZBEKISTON TARIXI

fanidan dastur

Mazkur dastur O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalariga nomzod talabalar uchun mo'ljallangan.

Tuzuvchilar:

Biykuziyev A.A. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, Jahon tarixi kafedrası dotsenti, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

To'xtaboyeva D.E. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, O'zbekistonning eng yangi tarixi kafedrası dotsenti, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Doroshenko T.I. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, O'zbekistonning eng yangi tarixi kafedrası dotsenti, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Tog'ayev J.E. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, O'zbekiston tarixi kafedrası dotsenti, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Taqrizchilar:

Ismatullayev F.O. Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti, Tarix kafedrası dotsenti, tarix fanlari doktori (DSc), dotsent.

Xatamov T.A. O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi, Islom tarixi va manbashunosligi IRCICA kafedrası dotsenti, tarix fanlari nomzodi, dotsent.

KIRISH

O'zbekistonning davlat mustaqilligini qo'lga kiritishi tufayli xalqimizning asriy orzusi ushalib, o'z taqdirini hal etish kelajagini o'zi qurish imkoniyatiga ega bo'ldi. Qisqa davrda jamiyatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha sohalarida ijobiy o'zgarishlar ro'y berdi. Shubhasiz, bunday ulkan o'zgarishlar tufayli istiqlolni asrlar davomida orzu qilgan xalqimizning ko'hna tariximizga bo'lgan munosabati tubdan o'zgardi. Istiqlool sharofati bilan tariximizni haqqoniy tadqiq etish, uni xalqimizga asliyat bilan taqdim etish imkoniyati yaratildi. Vatanimiz tarixini o'rganishga doir tadqiqotlarga jiddiy e'tibor qaratilib, yosh avlodni tarixga hurmat, ajdodlardan faxrlanish hissi bilan tarbiyalash vazifasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Zero, yangi jamiyat qurish kelajak avlodning ma'naviy dunyosiga bog'liqdir. Binobarin, xalqimizda milliy g'oya, yuksak ma'naviy fazilatlarini shakllantirishda, yosh avlodni Vatan taraqqiyoti, xalq taqdiri uchun g'oyaviy kurashchanlik ruhida tarbiyalashda, ularning yuksak ma'naviyatli komil inson bo'lib shakllanishida, O'zbekiston tarixi fanining ahamiyati beqiyosdir.

Barcha oliy ta'lim muassasalarining birinchi bosqichida O'zbekiston tarixi fani o'qitiladi. O'zbekiston tarixi fani o'quv dasturiga kiritilgan nazariy va konseptual – metodologik mavzular insoniyat uchun eng muhim boylik – ma'naviyatni yuksaltirish, uni yoshlar qalbi va ongiga chuqur singdirish mazmunida o'qitiladi.

O'zbekiston tarixi fani tarixiy voqealarni tahlil qilish, ularning sabablari va mohiyatini, ichki va tashqi omillarini, umumiy va o'ziga xos qonuniyatlarini ochib berishni ko'zda tutadi. Bu o'z navbatida, talaba yoshlarni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega, yuksak ma'naviyatli komil inson qilib tarbiyalashga va ularda milliy g'oya, tarixiy tafakkurni shakllantirishga ko'maklashadi.

1. Mavzu. O'zbekiston tarixi fanining predmeti, nazariy-metodologik asoslari, manbalari va ahamiyati.

O'zbekiston tarixi fanining predmeti, tadqiqot obyekti, nazariy metodologik tamoyillari. O'zbekiston tarixining jahon xalqlari tarixi bilan uzviy bog'liqligi.

O'zbekiston tarixining dolzarb muammolari. O'zbekiston tarixini o'rganishda moddiy va yozma manbalarning o'rni hamda ahamiyati. Ma'naviy barkamol, ongida milliy g'oya va Vatan ravnaqi mafkurasi ustunlik qiladigan, yuksak ma'naviyatli komil insonlarni tarbiyalashda O'zbekiston tarixi fanining o'rni.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev barkamol avlod, ma'naviy yetuk shaxsni tarbiyalashda tarix fanining o'rni va saboqlari xususida.

2. Mavzu. Markaziy Osiyo – jahon sivilizatsiyasining ajralmas qismi.

O'zbekiston – qadimgi sivilizatsiya va madaniyat beshigi.

Antropogenez jarayoni. Qadimgi odamlarning turmush tarzi, mashg'ulotlari. Paleolit davri. Paleolit davri ibtidoiy xo'jaligidagi o'zgarishlar. Neandertal odami.

Mezolit davri. Neolit davri. Tosh qurollarining takomillashuvi. Chorvachilik va dehqonchilik.

Eneolit davri. Bronza davridagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar.

O'rta Osiyoda ilk shahar madaniyatining paydo bo'lishi. "Avesto" ning inson ma'naviyatini shakllantirishdagi o'rni.

3. Mavzu. O'zbek davlatchiligining shakllanishi va dastlabki taraqqiyot bosqichlari.

Davlat tuzilmalarining shakllanish shart-sharoitlari va omillari. Ilk shaharlar. Dastlabki boshqaruv tizimi. Ilk davlatlar. Qadimgi Xorazm davlati. Xorazm davlatida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot.

Qadimgi Baqtriya davlati. Ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot. Sug'd (Sug'diyona). Ahmoniylarning O'rta Osiyoni bosib olishi. Mahalliy aholining bosqinchilarga qarshi ozodlik uchun kurashi. To'maris. Shiroq. Skunxa. Frada. Ahmoniylarning hukmronligi davrida ijtimoiy-iqtisodiy hayot.

Aleksandr Makedonskiy boshchiligidagi yunon-makedon qo'shinlarining O'rta Osiyoga yurishi. Spitamen. Salavkiylar hukmronligi davri. Yunon-Baqtriya davlati. Ellin madaniyati. Dovon davlati. Ijtimoiy-iqtisodiy hayoti. Qang' davlati. Iqtisodiy hayoti. Afrig'iylar sulolasi davrida Xorazm. Kushon podsholigi davrida ijtimoiy-iqtisodiy hayot. Madaniy – ma'naviy hayot. Qadimiy yozuv madaniyati. Buyuk ipak yo'lining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari. O'zbek xalqi etnogenezi.

4. Mavzu. Ilk o'rta asrlarda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayot.

Xioniylar va kidariylar. Eftaliylar hukmronligi davrida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot.

Turk xoqonligining vujudga kelishi. Turk xoqonligi tomonidan O'rta Osiyo va Uraloldi hududlarining zabt etilishi. Ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot. G'arbiy Turk xoqonligi. Tun yabg'u.

Arab xalifaligi tomonidan O'rta Osiyoga amalga oshirilgan istilochilik yurishlari. Arab xalifaligiga qarshi ozodlik harakatlari. Abu Muslim boshchiligidagi harakat. G'urak va Devashtich. Xalq g'alayonlari. Muqanna qo'zg'oloni. Islom dinining yoyilishi. Qur'oni-karim – muqaddas kitob. Hadislar va ularning ijtimoiy-siyosiy mohiyati. Islom dini ta'limotini rivojlantirishda O'rta Osiyolik olimlarning hissasi. Ma'naviy kamolotga erishuv yo'lida muhaddislar merosining ahamiyati.

5. Mavzu. IX-XII asrlarda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayot.

Ajdodlarimizning jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga

qo'shgan ulkan hissi.

IX asr boshlarida Movarounnahr. Tohiriylar davlati. Ijtimoiy-iqtisodiy hayot.

Somoniylar sulolasi. Ismoil Somoniy. Ijtimoiy-iqtisodiy hayot.

Qoraxoniylar hukmronligi. Ijtimoiy-iqtisodiy hayot.

G'aznaviylar davlati. Mahmud G'aznaviy davrida davlatning kuchayishi. G'aznaviylar bilan saljuqiylar o'rtasidagi to'qnashuv.

Saljuqiylar davlati. Ijtimoiy-iqtisodiy ahvol. Xorazmshoh-Anushteginiylar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi. Sulton Otsiz. Sulton Takash faoliyati. Muhammad Xorazmshoh. Ijtimoiy-iqtisodiy ahvol va madaniy hayot. Uyg'onish davri. IX-XII asrlar O'rta Osiyoda madaniy yuksalish. Bayt ul-hikma.

Xorazm Ma'mun akademiyasi. Qomusiy olimlar. Al-Xorazmiy. Al-Farg'oniy. Abu Rayhon Beruniy faoliyati. Abu Ali ibn Sino. Olimning tibbiyot sohasidagi yutuqlari. Al-Forobiy - buyuk qomusiy olim. Mahmud Qoshg'ariy. Ahmad Yugnakiy. Yusuf Xos Hojib.

IX-XII asrlarda islom dini va so'fiylik. Imom Buxoriy. "Jome' as-Sahih". Hadislar tavsifi. Imom Termiziy. Yusuf Hamadoniy. Ahmad Yassaviy. Abduholiq G'ijduvoniy. Tasavvuf ilmining yuzaga kelish shart-sharoitlari. IX-XII asrlarda me'morchilik va san'at.

6. Mavzu. Mo'g'ullar istilosi va zulmiga qarshi kurash. Jaloliddin

Manguberdi – mard va jasur sarkarda.

Chingizxon (Temuchin) davlati. Chingizxon va Sulton Muhammad Xorazmshoh munosabatlari.

Bahovuddin Roziy. O'tror voqeasi. Mo'g'ullarning O'rta Osiyoga istilochilik yurishlari. Mo'g'ullar hujumi arafasida Xorazmshohlar davlati. O'tror mudofaasi. Xo'jand qamali.

Temur Malik jasorati. Buxoro va Samarqandning bosib olinishi. Gurganj (Urganch) qamali.

Najmiddin Kubro jasorati.

Jaloliddin Manguberdi-yurt himoyachisi. Parvon jangi. Sind jangi. Jaloliddin Manguberdining O'rta Sharqdagi faoliyati. Mo'g'ul istilosi va zulmiga qarshi kurashning davom ettirilishi.

O'lkada mo'g'ullar hukmronligining o'rnatilishi va uning oqibatlari. Chig'atoy ulusining tashkil topishi. Mahmud Yalavoch. Mahmud Torobiy qo'zg'oloni. Kebekxonning ma'muriy va pul islohotlari. Qozonxon davrida hokimiyat uchun

ichki kurashning kuchayishi. Chig'atoy ulusining parokandalikka uchrashi. Madaniy hayot.

7. Mavzu. Amir Temur va temuriylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayot.

XIV asr o'rtalarida Movarounnahrda ijtimoiy-siyosiy vaziyat. Amir Temurning siyosiy kurash maydoniga kirib kelishi. Amir Temur va Amir Husayn. Sarbadorlar harakati. Amir Temur hokimiyatining o'rnatilishi. Amir Temurning harbiy yurishlari. Amir Temur-buyuk davlat arbobi, mashhur sarkarda. "Kuch – adolatda". Amir Temurning O'rta Osiyo va jahon tarixida tutgan o'rni.

Saltanatni boshqarish tizimi. Qo'shinning tuzilishi va harbiy intizom. "Temur tuzuklari" – davlat boshqaruv ishidagi muhim manba sifatida. Xo'jalik va madaniy hayot. Markazlashgan davlatning parchalanishi.

Shohruh Mirzo hukmronligi davrida temuriylar saltanati. Movarounnahrda Mirzo Ulug'bek hukmronligi. Mirzo Ulug'bek davrida madaniyat, ilm-fan va adabiyot ravnaqi.

Ichki nizo va kurashlarning avj olishi. Movarounnahrda Abusaid va uning o'g'illari, Xurosonda Husayn Boyqaro hukmronligi. XV asrning ikkinchi yarmida fan, adabiyot va madaniyat. Alisher Navoiyning siyosiy va adabiy faoliyati.

8. Mavzu. O'rta Osiyo hududlarining xonliklarga bo'linib ketishi, uning sabablari va oqibatlari.

Muhammad Shayboniyxon. Bobur va Shayboniyxon. Movarounnahrda shayboniylar hukmronligining o'rnatilishi. Ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot.

Abdullaxon II. Buxoro xonligida ashtarxoniylar (joniylar) sulolasi hukmronligi. Buxoro xonligining ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy ahvoli. Mamlakatda ichki kurash, tarqoqlikning kuchayishi va uning asosiy sabablari. Buxoro xonligida hokimiyatning mang'it amirlari qo'lga o'tishi. Buxoro amirligida madaniy hayot. Buxoro-islom va ma'rifat markazi.

Xiva xonligining tashkil topishi. Shayboniylarning Xivadagi hukmronligi. Qo'ng'iro't sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi. Qoraqalpoqlar. Ijtimoiy-iqtisodiy ahvol. Madaniy hayot.

XVIII asrda Farg'ona vodiysidagi siyosiy vaziyat. Qo'qon xonligiga asos solinishi. Xonlikning hududi va aholisi, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayoti. Qo'qon xonligidagi ichki kurash. Xalq noroziligining kuchayishi. Qo'qon xonligida madaniy hayot. Xonliklardagi siyosiy-huquqiy bilim va diniy dunyoqarashning jamiyat ma'naviy, moddiy hayotidagi o'rni.

**9. Mavzu. O'zbek xonliklarining Rossiya imperiyasi tomonidan
bosib olinishi. Mustamlakachilik zulmiga qarshi
milliy-ozodlik harakati. Jadidchilik.**

XIX asr o'rtalarida o'zbek xonliklarining ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy ahvoli. O'rta Osiyo masalasida ingliz-rus raqobati. Qo'qon xonligi hududlariga hujum. Toshkent mudofaasi. Jizzax, O'ratepa janglari.

Turkiston general-gubernatorligi. Buxoro amirligining Rossiya imperiyasi vassaliga aylantirilishi. Xiva xonligiga bosqinchilik yurishi.

Xiva xonligining Rossiya imperiyasi vassaliga aylantirilishi. Qo'qon xonligida siyosiy tanglik. Xalq qo'zg'olonlari. Rossiya imperiyasi tomonidan Qo'qon xonligining tugatilishi.

Farg'ona viloyatining tashkil etilishi. Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati, boshqaruv tizimi. Harbiy boshqaruv tartibi. Rossiya imperiyasining iqtisodiy hukmronlikni o'rnatish tadbirlari. Agrar siyosat. Aholini ko'chirib keltirish siyosati.

Mustamlakachilikni kuchaytirishga qaratilgan madaniy va ma'rifiy siyosat. Mustamlakachilik zulmiga qarshi milliy ozodlik harakatlari. Farg'ona vodiysidagi xalq harakatlari. Toshkent qo'zg'oloni. Andijon qo'zg'oloni. Jadidchilik harakati va uning atoqli vakillari. Birinchi jahon urushining o'lka hayotiga salbiy ta'siri. Aholi noroziligining kuchayishi. 1916-yilgi xalq qo'zg'oloni va uning xarakteri.

**10. Mavzu. Turkistonda mustabid sovet hokimiyatining o'rnatilishi.
Sovet hokimiyatining O'zbekistonda amalga oshirgan
ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy siyosati.**

1917-yil fevral burjua-demokratik inqilobi va uning Turkistonga ta'siri. Sovetlar hokimiyatining o'rnatilishi. Turkiston muxtoriyati. Qo'qon fojiasi. Turkiston ASSR. Harbiy kommunizm siyosati.

Sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakat. Xiva xonligi. "Yosh xivaliklar". Xiva xonligining ag'darilishi. Xorazm Xalq Sovet Respublikasi.

Buxoro amirligi. "Yosh buxoroliklar". Amir hokimiyatining ag'darilishi. Buxoro Xalq Sovet Respublikasi. XX asr 20-yillarda ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy vaziyat. Yer-suv islohotlari.

O'rta Osiyoda milliy hududiy chegaralanish. O'zbekiston SSR. Qoraqalpog'istondagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy ahvol. Sanoatlashtirish va agrar siyosat. Jamoalashtirish siyosati. Quloqlashtirish. "Madaniy inqilob". Ma'muriy-buyruqbozlik boshqaruvi. Siyosiy qatag'onlar.

Ikkinchi jahon urushi. Xo'jalik va ijtimoiy hayotning harbiy izga solinishi. Urush yillarida O'zbekiston sanoati. Fan va madaniyat. O'zbekistonliklarning frontdagi jasoratlari.

11. Mavzu. O'zbekistonda sovet davlatining amalga oshirgan ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy siyosati va uning oqibatlari (1946-1991 yy).

O'zbekiston ikkinchi jahon urushi yillaridan keyingi tiklanish yillarida.

XX asr 50-60-yillarda O'zbekistondagi iqtisodiy hayot.

XX asr 70-yillarida respublikadagi ijtimoiy-siyosiy holat. Sh. Rashidov faoliyati. Iqtisodiyotning xomashyo yetishtirish tomon yo'naltirilishi. Paxta yakkahokimligi.

XX asr 50-80-yillarda respublikaning madaniy hayoti. Ilm-fan. 80-yillarning o'rtalaridagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy hayotdagi inqiroz. "Qayta qurish" va uning cheklanganligi.

"Paxta ishi", "o'zbeklar ishi". Farg'ona fojiasi.

Respublika ijtimoiy-siyosiy hayotida o'zgarishlar. Kadrlar siyosatida milliy manfaatlar ustuvorligining o'sib borishi. "Paxta ishi"ning qayta ko'rilishi va tarixiy adolatning tiklanishi.

Ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot. I. Karimov – O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti. Mustaqillik Deklaratsiyasi va uning ahamiyati. 1991-yil avgust voqealari. SSSRning tanazzulga yuz tutishi.

12. Mavzu. O'zbekistonda davlat mustaqilligining qo'lga kiritilishi.

Huquqiy demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyat asoslarini shakllantirish.

O'zbekiston davlat mustaqilligining e'lon qilinishi va uning tarixiy ahamiyati.

1991-yil 29-dekabrdagi referendum va umumxalq tomonidan O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining ma'qullanishi. I. Karimovning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylanishi. Siyosiy islohotlar.

Davlat hokimiyatining milliy, huquqiy, demokratik asoslarining barpo etilishi. Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati. Ko'ppartiyaviylik tizimiga asos solinishi.

O'zbekiston parlamenti. Ikki palatali parlament. Vazirlar Mahkamasi, uning ijro etuvchi hokimiyatning muhim bo'g'ini sifatidagi o'rni. Xalq xo'jaligi tizimi boshqaruvidagi islohotlar.

Sud hokimiyati islohotlari. Mahalliy davlat hokimiyati organlari. Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqaruv organlari. Millatlararo tinchlik va totuvlik. Axborot tizimini erkinlashtirish.

13. Mavzu. Mustaqillik yillarida O'zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-madaniy taraqqiyot. O'zbekiston va jahon hamjamiyati.

Taraqqiyotning "O'zbek modeli". Iqtisodiy islohotlar. Xususiylashtirish. Ko'p ukladli iqtisodiyot. Tadbirkorlikning rivojlanishi. Bozor infratuzilmasining

shakllanishi. Iqtisodiyotdagi chuqur tarkibiy o'zgarishlar. Agrar islohotlar. Iqtisodiy barqarorlikning ta'minlanishi. Kuchli ijtimoiy siyosat. Ma'naviy qadriyatlarning tiklanishi. Millatlararo munosabatlardagi barqarorlik. "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi". Ilm-fanning rivojlanishi. Madaniyat va san'at. Jismoniy tarbiya va sport. Qoraqalpog'istonning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy taraqqiyoti.

Tinchliksevar mustaqil tashqi siyosat asoslarining ishlab chiqilishi. BMT, YEXHT bilan hamkorlikning yo'lga qo'yilishi. Shanxay hamkorlik tashkiloti va O'zbekiston. O'zbekiston va MDH. Xalqaro terrorizm, diniy ekstremizmga va "ommaviy madaniyat" niqobi ostidagi ma'naviy tahdidlarga qarshi kurashda O'zbekistonning tutgan o'рни. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ijtimoiy – iqtisodiy islohotlarni yanada jadallashtirilishi. 2017-2021-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish Harakatlar strategiyasi. "Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyili asosida 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi ishlab chiqilishi. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining mazmun mohiyati va ustuvor yo'nalishlari. "Taraqqiyot strategiyasi" doirasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar.

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida orttirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida "O'zbekiston – 2030" strategiyasi ishlab chiqilishi. Strategiyaning ishlab chiqishda yangi tahrirdagi Konstitutsiya muhim huquqiy asos vazifasini bajarganligi. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi ustuvor yo'nalishlari.

Darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati:

Asosiy adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023. – 80 b.
2. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистоннинг “Яшил” тараққиёт йўли. – Тошкент: “O'zbekiston” nashriёти. 2025. – 336 б.
3. Мирзиёев Ш.М. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон. – Тошкент: “O'zbekiston” nashriёти, 2024. – 560 б.
4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. 6-jild. – Toshkent: “O'zbekiston” nashriyoti, 2023. – 536 b.
5. Мирзиёев. Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: “O'zbekiston” nashriёти, 2021. 464 бет.
6. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild. – Toshkent: “O'zbekiston” nashriyoti, 2019.
7. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimiz roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – Toshkent: “O'zbekiston” nashriyoti, 2018.
8. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan quramiz. – Toshkent: “O'zbekiston” nashriyoti, 2017.
9. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: “O'zbekiston” nashriyoti, 2017.
10. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida. PF – 4947-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 07.02.2017.
11. Klichev O. O'zbekiston tarixi. V qism. – Toshkent: Bayoz, 2025.
12. Murtazayeva R.X. va boshqalar. O'zbekistonning eng yangi tarixi.. – Toshkent, 2022. – 347 b.
13. Sagdullayev A. va boshqalar. Qadimgi O'rta Osiyo tarixi. – T.: Universitet, 2004-y.
14. Sagdullayev A. va boshqalar. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. – T.: Akademiya, 2000-y.
15. O'zbekiston tarixi. I kitob. Oliy o'quv yurtlarining tarix fakulteti talabalari uchun darslik / Mas'ul muharrir A.S.Sagdullayev. – Toshkent: VNESHINFORM, 2019. – 643 b.
16. O'zbekistonning yangi tarixi. Birinchi kitob. Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. – T.: Sharq, 2000-y.

17. O'zbekistonning yangi tarixi. Ikkinchi kitob. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. – T.: Sharq, 2000-y.
18. O'zbekistonning yangi tarixi. Uchinchi kitob. Mustaqil O'zbekiston tarixi. – T.: Sharq, 2000-y.
19. O'zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari. – T.: Sharq, 2001-y.
20. O'zbekistonning davlat muassasalari tarixi. I qism. (Eng qadimgi davrlar – XIX asrning o'rtalari). Mas'ul muharrir Z.A.Saidboboyev. – Toshkent: TURON-IQBOL, 2021. – 392 b.
21. O'zbekiston tarixi. (Eng qadimgi davrdan bugungi kungacha) I-X jild. Asqarov A. va boshq. – Toshkent: Ma'naviyat, 2023.
22. Ўзбек давлатчилиги тарихи. (мил. авв. II минг йиллик иккинчи ярми – мил. III аср). I жилд. Масъул муҳаррирлар Э.В.Ртвеладзе, Д.А.Алимова. – Т.: Akademnashr, 2021. – 552 б.
23. Qoraqalpog'iston tarixi (1917-1994 yy.). Nukus: 1995.
24. Eshov B.J. O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. – T.: Yangi asr avlodi, 2012.
25. Eshov B., Adilov A. O'zbekiston tarixi. II kitob. Oliy o'quv yurtlarining tarix fakulteti talabalari uchun darslik. – Toshkent: "NIF MSH", 2024. – 430 b.
26. Eshov B., Adilov A. O'zbekiston tarixi. I Jild. Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2014. – 628 b.
27. Eshov B., Adilov A. O'zbekiston tarixi. II Jild. Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. – Toshkent: 2015. – 458 b.
28. Zamonov A., Egamberdiyev A. O'zbekiston tarixi. IV qism. Barcha mutaxassisliklar uchun darslik. – Toshkent, Bayoz, 2022.
29. Zamonov A.T. va boshq. O'zbekiston tarixi. I qism. – Toshkent: Bayoz, 2024.
30. Zamonov A.T. va boshq. O'zbekiston tarixi. II qism. – Toshkent: Bayoz, 2024.
31. Zamonov A.T. O'zbekiston tarixi. III qism. – Toshkent: Bayoz, 2023.

Qo'shimcha adabiyotlar:

32. Nasimxon R. Turk xoqonligi. – T.: Meros, 1993.
33. Nizomul mulk. Siyosatnoma. – T.: Adolat, 1997.
34. Polvonov N.T. O'zbekistonda ijtimoiy harakatlar va siyosiy partiya tarixi (Xorazm misolida). – T.: Universitet, 2007.
35. Abulg'oziy B. Shajarayi turk. – T.: Cho'lpon, 1992.

36. "Avesto". "Yasht" kitobi. O'zbek tiliga M. Is'hoqov ilmiy-izohli tarjimalari. – T.: Sharq, 2001.
37. Murtazayeva R.X. va boshqalar. O'zbekiston tarixi. Darslik. – T.: 2003.
38. Murtazayeva R.X. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va bag'rikenglik. – T.: Universitet, 2007-y. 184 b.
39. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: Fan, 1993.
40. Abulqosim Firdavsiy. Shohnoma. Uch jildlik. – T.: G'afur G'ulom nashriyoti, 1984.
41. Ahmedov B. Sohibqiron Temur (hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyati). – T.: Fan, 1996.
42. Aliyev A. Mahmudxo'ja Behbudiy. – T.: Yozuvchi, 1994.
43. Amir Olimxon. Buxoro xalqining hasrati tarixi. – T.: Fan, 1991.
44. Amir Temur Ko'ragon. Zafar yo'li. – T.: Nur, 1992.
45. Axmedov E. O'zbekiston shaharlari. – T.: O'zbekiston. 1998.
46. A'zamxo'jayev S. Turkiston muhtoriyati. – T.: Ma'naviyat, 2000.
47. Bobobekov H.N. Qo'qon tarixi. – T.: Fan, 1996.
48. Buniyotov Z. Anushtegin Xorazmshohlar davlati (1097-1231). – T.: G'afur G'ulom nashriyoti, 1998.
49. Eshov B.J. Qadimgi O'rta Osiyo shaharlari tarixi. Darslik. – T.: Fan va texnologiya, 2008.
50. Eshov B.J. Sivilizatsiya tizimida ilk shaharlar. – T.: Zar qalam, 2004.
51. Hasan Ato Abushiy. Turkiy qavmlar tarixi. – T.: Cho'lpon, 1993.
52. Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. Ikki jildlik. – T.: Mehnat, 1992.
53. Ibrohimov A. Biz kim o'zbeklar – T.: Sharq, 2000.
54. Jabborov I. O'zbek xalqi etnografiyasi. – T.: O'qituvchi, 1994.
55. Levitin L. O'zbekiston tarixiy burilish pallasida. – T.: O'zbekiston, 2001.
56. Ma'naviyat yulduzlari. – T.: Meros, 2001.
57. Mirzo Ulug'bek. To'rt ulus tarixi. – T.: Cho'lpon, 1994.
58. Muhammadjonov A. Qadimgi Buxoro. – T.: Fan, 1991.
59. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. – T.1-12. T.: O'zME davlat ilmiy nashriyoti, 2000-2006.
60. Shoniyozov K. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. – T., Fan, 2001.
61. Sulaymonova F. Sharq va G'arb. – T.: O'zbekiston, 1997.
62. Temur tuzuklari. – T.: G'afur G'ulom nashriyoti, 1991.
63. Yo'ldoshev N. Bahovuddin Naqshband. – Buxoro, 1993.

64. Yunusova X.E. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va ma'naviy jarayonlar (XX asr 80-yillari misolida). – T.: Abu matbuot-konsalt, 2009.

65. Yunusova X.E. O'zbekistonda sovet davlatining milliy siyosati va uning oqibatlari (XX asr 80-yillari misolida). – T.: Zar qalam, 2005.

66. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. – T.: Yulduzcha, 1990.

67. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. T.: Fan, 1960.

68. Ziyoyev H. O'zbek davlatchiligi tarixi. – T.: Sharq, 2000.

69. Ziyoyev H. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash. – T.: Sharq, 1998.

Internet saytlar:

1. www.lex.uz

2. www.unilibrary.uz

3. www.stat.uz

4. www.natlib.uz

5. www.ziyonet.uz